

## JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA VALENTLIK MASALASI

*Begimqulova Sevara Faxriddinovna,  
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

## ПРОБЛЕМА ВАЛЕНТНОСТИ В МИРОВОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

*Бегимкулова Севара Фахриддиновна,  
Докторант Гулистанского государственного  
университета*

## THE PROBLEM OF VALENCE IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS

*Begimkulova Sevara Fakhriddinovna,  
PhD student at Gulistan State University*



[sevarabegimqulova391@gmail.com](mailto:sevarabegimqulova391@gmail.com)

<https://orcid.org/0009-0007-9558-1571>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunoslikdagi valentlik tushunchasining jahon va o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni keng yoritilgan. Mazkur maqola valentlik nazariyasining kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi ilmiy tadqiqotlardagi ahamiyati haqida fikr yuritadi. Valentlik tushunchasi fe‘lning gapda ishtirokchilar bilan bog‘lanish imkoniyatlarini belgilashini tushuntiradi. O‘zbek tilida so‘z yasalishi va valentlik o‘zgarishlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinib, bu jarayonlarning tilning leksik va sintaktik tizimiga ta’siri dalillar bilan tasdiqlangan.

**Kalit so‘zlar:** valentlik, fe‘l valentligi, so‘z yasalishi, jahon tilshunosligi, o‘zbek tili, semantika, sintaksis, ishtirokchilar, leksik-sintaktik munosabatlar.

**Аннотация:** В данной статье подробно освещена роль понятия валентности в лингвистике, как в мировой, так и в узбекской лингвистике. Понятие валентности описывает возможность глагола связываться с участниками в предложении. Статья дает подробную информацию о происхождении, развитии и значимости теории валентности в современных исследованиях. В статье также анализируется взаимосвязь между словообразованием и изменением валентности в узбекском языке и их влияние на лексико-синтаксическую систему языка, что подтверждено примерами.

**Ключевые слова:** валентность, валентность глагола, словообразование, мировая лингвистика, узбекский язык, семантика, синтаксис, участники, лексико-синтаксические отношения.

**Annotation:** This article provides a detailed overview of the concept of valency in linguistics, focusing on its significance in both global and Uzbek linguistics. The concept of valency describes a verb's ability to connect with participants within a sentence. The article presents detailed information on the origins, development, and significance of valency theory in modern research. It also analyzes the relationship between word formation and valency changes in the Uzbek language and their impact on the language's lexical and syntactic system, supported by evidence.

**Key words:** valency, verb valency, word formation, global linguistics, Uzbek language, semantics, syntax, participants, lexical-syntactic relations.

**Kirish.** Tilshunoslikning asosiy nazariyalaridan biri bo‘lgan valentlik fe‘lning gapdagi ishtirokchilar bilan qanday munosabatda bo‘lishini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ilk bor L. Tesniere tomonidan joriy etilgan ushbu nazariya hozirgi butunjahon tilshunosligida ham muhim o‘rin tutadi. Valentlik tushunchasi orqali fe‘lning sintaktik tuzilishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa so‘zlar orasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Bu jarayon til qurilishi tamoyillarini tushunishga, til birliklarining o‘zaro aloqasini o‘rganishga imkon beradi<sup>1</sup>.

Jahon va o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, valentlik nafaqat fe‘lning o‘ziga, balki butun gap tuzilishiga ta‘sir qiladi. Bu esa tilning semantik va sintaktik imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Shuningdek, valentlik orqali turli tillarni qiyosiy tahlil qilish va umumiy grammatik tamoyillarni aniqlash mumkin.

**Metodologiya.** Jahon tilshunosligida valentlik nazariyasi XX asrda rivojlangan bo‘lib, u fe‘l va uning ishtirokchilari orasidagi bog‘lanishlarni izohlash uchun keng qo‘llanilgan. L. Tesniere tomonidan taqdim etilgan bu tushuncha ko‘plab nazariy yondashuvlarda, jumladan, Fillmore‘ning “The Case for Case” nazariyasida ham asosiy o‘rin egallaydi.<sup>2</sup>

Jahon tilshunosligida valentlik tushunchasi asosan sintaktik bog‘lanishlar orqali tahlil qilinadi. Tesniere valentlikni fizikada kimyoviy elementlarning boshqa elementlar bilan bog‘lanish qobiliyati bilan taqqoslaydi. Fe‘lning valentligi uning qancha miqdorda boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishiga bog‘liqdir. Bunda valentlik uch turga bo‘linadi: **bir valentlikli, ikki valentlikli va uch valentlikli.**

**1.1. Bir valentlikli fe‘llar** – Bunday fe‘llar faqat bitta argument bilan bog‘lanadi, ya‘ni faqat bitta qo‘shimcha yoki to‘ldiruvchi talab qiladi. Masalan, “yurmoq” fe‘li faqat bitta subyektga ehtiyoj sezadi: *Ali yurdi.*

**1.2. Ikki valentlikli fe‘llar** – Bunday fe‘llar ikki argument talab qiladi: subyekt va obyekt. Masalan, “bermoq” fe‘li: *Ali kitob berdi* – bu yerda fe‘l subyekt va obyekt bilan bog‘lanadi.

**1.3. Uch valentlikli fe‘llar** – Bunday fe‘llar uchta argument talab qiladi. Masalan, *Ali kitobni Oygulga berdi* gapida “Ali” subyekt, “kitobni” obyekt va “Oygulga” – indirekt obyekt hisoblanadi.

Valentlik tushunchasi shuningdek, pragmatik nuqtayi nazardan ham tahlil qilinadi. Fe‘l valentligi faqat sintaktik jihatdan emas, balki ma‘no, kontekst va kommunikativ vazifalar orqali ham aniqlanadi. Jahon tilshunosligida bu soha pragmatik valentlik nomi bilan tanilgan bo‘lib, bu til birliklarining ma‘no va funksiyasiga qaratilgan. Pragmatika – bu tilning ishlatilishida ma‘nolarni kontekst asosida tushunishga yo‘naltirilgan tilshunoslik sohasi bo‘lib, valentlik esa gapning grammatik tuzilishi doirasida fe‘lning necha ishtirokchi talab qilishini belgilaydi. Valentlikning pragmatik tahlili esa grammatik tuzilmalardan tashqariga chiqib, gapning ishlatilish maqsadi va konteksti asosida qanday shakllanishini o‘rganadi.

**Muhokama.** Pragmatik nuqtayi nazardan valentlik ko‘pincha kontekst asosida tushuniladi va gapning aniq shakllaridan ko‘ra ma‘lumot yetkazish niyati muhim bo‘ladi. Bu yerda fe‘lning valentligi yoki ishtirokchilar soni nutqning maqsadiga ko‘ra moslashadi. Masalan, so‘zlashuv davomida qisqartirishlar, tushirib qoldirishlar keng tarqalgan: “Bu shunchaki maslahat” (bu gapda kim tomonidan maslahat berilgani aytilmagan bo‘lsa-da, bu kontekstdan tushunarli bo‘lishi mumkin).

Bunda fe‘lning valentligi semantik jihatdan o‘zgar olmaydi, lekin pragmatik jihatdan u bitta ishtirokchi bilan kifoyalangan sanaladi.

Pragmatika valentlikni tushunish jarayoniga qanday ta‘sir qilishini o‘rganish uchun bir qancha omillarni ko‘rsatadi:

**1. Presuppozitsiya (oldindan qabul qilingan ma‘lumot):** Nutqda ba‘zi ishtirokchilar aytilmaydi, chunki ular kontekstdan aniq bo‘ladi.

<sup>1</sup>Tesniere, L. (1959). *Elements de Syntaxe Structurale*. Paris: Klincksieck.

<sup>2</sup>Fillmore, C. J. (1968). *The Case for Case*. In E. Bach & R. T. Harms (Eds.), *Universals in Linguistic Theory* (pp. 1–88). New York: Holt, Rinehart, and Winston.

Masalan, "Kitobni o'qdim" degan gapda kim o'qigani tushunarli.

## 2. Nutqning maqsadi:

Kommunikatsiyada ba'zi valentlik talab etilgan ishtirokchilar tushirib qoldiriladi, agar ularning keltirilishi nutq maqsadiga xizmat qilmasa.

3. **Deixis:** Fe'ning valentligi pragmatik omillar ta'sirida o'zgartirilishi mumkin, masalan, ishtirokchilar shaxs yoki joy ko'rsatkichlariga (deixis) tayanadi: "Mana buni ko'r!" degan gapda "mana bu"ning aniq mazmuni kontekst orqali tushunarli bo'ladi.<sup>3</sup>

**Valentlikning semantik jihatlarini** tilshunoslikdagi muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Bu tushuncha fe'ning gap tuzilishidagi ishtirokchilar soni va ularning gapdagi o'rnini belgilaydi. Valentlik semantik jihatdan fe'ning boshqa komponentlar bilan bog'lanishini va fe'ning ma'nosini to'liq anglashni ta'minlaydi. Valentlikning semantik jihatlarini kengroq yoritish uchun, avvalo, uning asosiy xususiyatlarini va bu jihatlarining tilga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqamiz.

**Natija.** Semantik valentlik fe'ning ishtirokchilar soni va ularning ma'nosiga bog'liq. Fe'l odatda necha ishtirokchi talab qilsa, shunchalik valentlikka ega bo'ladi. Masalan, quyidagi misollarda fe'ning talab qiladigan ishtirokchilar soni har xil:

- **Bir valentlik:** Bu yerda faqat bitta ishtirokchi mavjud bo'ladi.
- **Ikki valentlik:** Fe'l ikki ishtirokchini talab qiladi.
- **Uch valentlik:** Fe'l uchta ishtirokchini talab qiladi.

Valentlik tushunchasi semantik rollar orqali oydinlashadi. Har bir ishtirokchi ma'lum bir semantik rolga ega bo'ladi va bu rol fe'l bilan munosabatini ifodalaydi:

- **Agent (harakatni bajaruvchi):** Harakatni boshlovchi yoki amalga oshiruvchi ishtirokchi.

- Misol: "Ali eshikni ochdi." (Ali – agent.)

- **Patsiyent (harakatdan ta'sir ko'ruvchi):** Harakatdan ta'sirlanadigan ishtirokchi.

- Misol: "Eshik ochildi." (Eshik – patsiyent.)

- **Adresat (bilvosita obyekt):** Harakat kimga yoki nimaga qaratilganligini ko'rsatadi.

- Misol: "O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq berdi." (O'quvchilar – adresat.)

Valentlik semantik jihatdan o'zgaras bo'lsa-da, nutq konteksti uning qanday tushunilishi va talqin qilinishiga ta'sir qiladi. Masalan, ayrim fe'llarning valentligi nutq vaziyatiga qarab o'zgarishi yoki qisqartirilishi mumkin:

- Misol: "Men o'qiyapman." Bu gapda "nima o'qiyapman" so'zi tushirib qoldirilgan, lekin semantik valentlik o'zgarmaydi – ishtirokchilar soni hali ham ikki valentlik hisoblanadi.

**Fillmore** o'zining "Case Grammar" nazariyasida valentlikning semantik rollarini rivojlantirgan. U agent, patsiyent kabi semantik rollarni tahlil qilish orqali fe'ning ma'nosini to'g'ri tushunishni yoritgan.<sup>4</sup>

O'zbek tilshunosligida valentlik nazariyasi bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilgan. Bunga oid ishlar o'tgan asrning o'rtalariga to'g'ri keladi, rus tilshunoslari kabi, bu tadqiqotlar, fe'ning leksik va semantik xususiyatlariga tayangan holda olib borilgan. O'zbek tilshunoslaridan I.Qo'chqorov, R.Rasulov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, N.Q.Turniyozov, S.Muhammedova, M.Mirtojiyev, O'.Sharipova, M.Abuzalovalarning valentlikka doir tadqiqotlarini bunga misol qilishimiz mumkin.<sup>5</sup>

O'zbek tilshunosligida valentlikning tadqiqi tilning morfologik va sintaktik tizimlarini chuqurroq

<sup>3</sup> Shukurov S. *O'zbek tili sintaksisida valentlik nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2008.

<sup>4</sup> Fillmore, C. J. (1968). *The Case for Case*. In E. Bach & R. T. Harms (Eds.), *Universals in Linguistic Theory* (pp. 1–88). New York: Holt, Rinehart, and Winston.

<sup>5</sup> Rasulov.R., "O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari", - Toshkent: Fan,1989; Sharipova O'., "O'zbek tilida yumush fe'llarining ma'no valentliklari", fil.fan.nomz.diss.avtoreferati,Toshkent,1996;

Qo'chqortoyev I., "So'z ma'nosi va uning valentligi",- Toshkent:Fan,1977; Жоллыбекова М.Р. Типология неполных предложений диалогической речи в разносистемных языках ( на материале английского и каракалпакского языков). Дисс.канд.филол.наук. -Нукус, 2008; Abuzalova M., Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma.filol.fan.dok.(Dsc) diss. avtoreferati, Samarqand, 2008,

tushunishga xizmat qiladi. Soʻz yasovchi qoʻshimchalar orqali valentlikning oʻzgarishi gap tuzilmasini boyitadi yoki soddalashtiradi. Masalan, feʼlga ot yasovchi qoʻshimcha qoʻshilganda, uning valentligi oʻzgarib, feʼl yangi sintaktik munosabatlar hosil qiladi. Bu jarayon tilning morfologik imkoniyatlarini oshiradi va yangi gap tuzilmalari yaratish imkonini beradi.

Oʻzbek tilida soʻz yasalishi valentlikni oʻzgartirib, tilning leksik va sintaktik tizimini boyitadi. Soʻz yasash jarayoni yangi leksik birliklarni shakllantirib, ularning sintaktik rolini ham belgilaydi. Bu esa tilning semantik imkoniyatlarini oshiradi va gap tuzilmasiga taʼsir qiladi. Xususan, R.Rasulov valentlik atamasini oʻz tadqiqotlarida ham semantik, ham sintaktik hodisa ekanligini isbotladi. “Kommunikatsiya jarayoni lingvistik planda semantik-sintaktik jarayon, soʻzlar orasidagi semantik-sintaktik aloqa sifatida baholanadi”<sup>6</sup>.

Oʻzbek tilshunosligida valentlik tushunchasi uch jihat asosida farqlab oʻrganiladi: soʻz valentligi, sintaktik valentlik va grammatik shakl valentligi<sup>7</sup>. Professor H.Neʼmatov taʼkidlaganidek, soʻz valentligini tushunishimizda ikki muammoni farqlab olishimiz kerak: lisoniy valentlik va nutqiy valentlik. Lisoniy valentlik leksemaning lisonida (ongimizda) maʼnoviy jihatdan oʻziga mos birikuvchilarini tartiblashi (masalan, *bermoq* maʼnoviy valentliklari kim? kimga? qachon? nima sababdan? qanday? qancha? va hakoza). Nutqiy valentlik leksemaning lisonidagi valentliklarini zaruriyatga qarab moddiylashishi, voqelanishidir.

Oʻzbek tilshunosligida valentlik tushunchasini oʻrganish koʻp tadqiqotchilar va olimlar tomonidan olib borilgan. Ular oʻzbek tilining sintaktik va semantik xususiyatlarini, feʼlning valentligini va bu tushunchaning grammatik, morfologik tuzilmadagi ahamiyatini chuqur tadqiq qilishgan. Xususan, M.Abuzalovanning tadqiqotlari til hodisalarini oʻrganishda valentlikni substansial yondashuv orqali leksik valentlik va grammatik valentlikka boʻlib, farqlab tahlil qiladi. M.Abzalova “substansial yondashishda leksik valentlik bilan

birga grammatik valentlik – Grammatik (morfologik) shakllar, shuningdek, sintaktik kategoriyalar (pozitsiyalar)ning valentligi tushunchasi ham farqlanadi”<sup>8</sup> deb taʼkidlaydi.

Tilshunos olimi Oʻ.Sharipova ham valentlik va u bilan bogʻliq masalani oʻzbek tili asosida tadqiq qilib, feʼllarning valentlik imkoniyati, soʻz yasalishi va valentlik munosabati masalasiga ham alohida eʼtibor qaratadi. U tadqiqotlari davomida oʻzbek tilida yumush feʼl valentligining ishlash tamoyili, turli feʼllar bilan bogʻliq valentlikning grammatik va semantik jihatlarini chuqur oʻrganadi.<sup>9</sup>

I.Qoʻchqortoyev ham valentlik masalasini oʻzbek tilida tadqiq etgan olimlardan biri boʻlib, uning tadqiqotlari soʻz maʼnosi va uning valentliklari feʼllar orqali gapning sintaktik tuzilishiga qanday taʼsir qilishini koʻrsatadi. Olimning ishlari oʻzbek tili sintaksisi doirasida valentlik nazariyasining ahamiyatini ochib beradi va leksemalarning sintaktik imkoniyatlarini atroflicha tahlil qiladi.<sup>10</sup>

Oʻzbek tilshunosligida valentlikni oʻrgangan olimlar tilning semantik va sintaktik tizimida feʼllarning oʻziga xos oʻrnini va ularning bogʻliqligini tadqiq qilganlar. Bu olimlarning ilmiy ishlari oʻzbek tilining grammatik va semantik tizimini yanada chuqurroq tushunishga imkon beradi. Valentlik tushunchasi oʻzbek tilida gapning tuzilishi va maʼnosini shakllantiruvchi muhim omil boʻlib, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar tilning boyligi va imkoniyatlarini yanada kengroq tahlil qilishga yordam beradi.

**Xulosa.** Kelgusida valentlik nazariyasini oʻzbek tilida yanada kengroq tadqiq etish va uning morfologik-sintaktik tizimdagi rolini aniqlash oʻzbek tilshunosligi rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, valentlikning nazariy va amaliy jihatlarini oʻrganish jarayonini davom ettirish zarur. Bu ilmiy tadqiqotlar tilning ichki tizimlarini chuqurroq oʻrganishga hamda ularning umumiy tamoyillarini yoritishga yordam beradi.

<sup>6</sup> R.Rasulov. Oʻzbek tilidagi holat feʼllari va ularning obligator valentliklari. T. 1989.14-b

<sup>7</sup> Ibragimov J., “Oʻzbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari” filol.fan.dok(Dsc)dissertatsiya –Qarshi,2023.

<sup>8</sup> Abuzalova M., Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik

qurilma, filol.fan.dok.dissertatsiyasi, Samarqand:2018, -B.78

<sup>9</sup> Sharipova Oʻ., “Oʻzbek tilida yumush feʼllarining maʼno valentliklari”, fil.fan.nomz.diss.avtoreferati, Toshkent, 1996.

<sup>10</sup> Qoʻchqortoyev I., “Soʻz maʼnosi va uning valentligi”, - Toshkent:Fan,1977



### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tesniere, L. (1959). *Elements de Syntaxe Structurale*. Paris: Klincksieck.
2. Fillmore, C. J. (1968). *The Case for Case*. In E. Bach & R. T. Harms (Eds.), *Universals in Linguistic Theory* (pp. 1–88). New York: Holt, Rinehart, and Winston.
3. Shukurov, S. (2008). *O‘zbek tili sintaksisida valentlik nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Karimov, O. (2012). *O‘zbek tilining leksik-sintaktik strukturalari*. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.
5. Rasulov R. (1989). *O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari*. Toshkent.Fan nashriyoti.
6. Ibragimov J. (2023) *O‘zbek tili mustaqil leksemalarining xususiy birikuvchilari va ularning modellari*. filol.fan.dok(Dsc)dissertatsiyasi Qarshi.
7. Sharipova O‘. (1996) *O‘zbek tilida yumush fe’llarining ma’no valentliklari*.fil.fan.nomz.diss.avtoreferati, Toshkent.
8. Qo‘chqortoyev I. (1977) *So‘z ma’nosi va uning valentligi*. Toshkent:Fan.
9. Abuzalova M. (2008) *Substansial morfologiya, valentlik va sintaktik qurilma*. filol. fan. dok.(Dsc) diss. avtoreferati, Samarqand.

